

## **Lotin yozuvidagi harf shakllarida shaxs-gender xususiyatlarining aks etishi va uning lingvistik ekspertizasi**

Sarvinoz Oybek qizi Eraliyeva

Sareraliyeva2@gmail.com

Ilmiy rahbar: B.R.Mengliyev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishi lotin yozuvidagi harf shakllarida shaxs-gender xususiyatlarining aks etishi va uning lingvistik ekspertizasi bo'yicha amalga oshirilgan. Maqolada matn muallifi va ijrochisini bir-biridan qay tarzda farqlash, matnning leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlariga muvofiq matn ijrochisining qanday individual xususiyatlarga ega ekanligini aniqlash usullari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvistik ekspertiza, qo'lyozma matn, shaxs-gender xususiyatlar, lingvist-ekspert, kelishik qo'shimchasi, matn leksikasi, sintaktik xususiyatlar

## **Reflection of personality-gender characteristics in letter forms in Latin script and its linguistic expertise**

Sarvinoz Oybek kizi Eraliyeva

Sareraliyeva2@gmail.com

Scientific supervisor: B.R.Mengliyev

Chirchik State Pedagogical University

**Abstract:** This research work was carried out on the reflection of personality-gender characteristics in the letter forms of the Latin script and its linguistic expertise. The article shows how to distinguish the author and the performer of the text from each other, and the methods of determining the individual characteristics of the performer of the text according to the lexical, morphological, and syntactic features of the text.

**Keywords:** linguistic expertise, handwritten text, personality-gender features, linguist-expert, agreement suffix, text lexicon, syntactic features

### **Kirish**

O'zbek tilshunosligida lotin yozuvidagi harf shakllarida shaxs-gender xususiyatlarining aks etishi va uning lingvistik ekspertizasiga doir muayyan tadqiqot ishi mavjud emas. Shunday bo'lsa-da biz ushbu maqolamizda tilshunosligimiz yutuqlariga tayanib lingvistik ekspertizaning umumiy tahlil jarayonini amalga oshirdik. Lingvistik ekspertiza - sud jarayonida tekshirilishi lozim bo'lgan ziddiyatli

matnlarning (og‘zaki va yozma), leksik-semantik, grammatik, stilistik xususiyatlarini tahlil qilgan holda matnda mavjud “jumboq” yechimiga olib boruvchi amaliy jarayondir.

Quyida biz maktab rahbariyatiga ota-onalar tomonidan tushgan shikoyat xati avtorizatsiyasi bo'yicha tekshiruv o'tkazdik.

### Tahlil va natijalar

Sizga murjaat qilishimdan magzadim shuki, siz rahbarlik qilayotg'on matalda ö'rastini suistemel qiluvechi ayrim nomunosib o'qituvchilar salabli nabitam ruhiy bosim ostidi qolmogda. U doim maktabdan safa holda uyg'a qaytadi. Nabitam gancha yahshi o'gishga harakat qilmasin, unga k'epinchka qonigarli baho qeyishar ekan. O'qituvchining öri savodsiz bolasu, bolasda ayt yug, menimeha. Bu fagat mening filim emas. Xoplab ota-onalar tomonidan baxi o'qituvchilarga nishbatan shunday nororiliklar huchalmogda. Shularni indatga olib tegishli chora korishningiga urid qilaman.

Matnning umumiyligi: Matn yozma usulda qog'ozga yozilgan. Yozuvlar oralig'ida uzilishlar yo'q. Texnik uzilishlar mavjud emas. Matn oq qog'ozga sharikli ruchkada yozilgan.

Dastlabgi o'qish natijasi: Matnda texnik, punktuatsion va orfografik xatolar miqdori oz bo'lib ular ham atayin qilingan. Qo'shimchalar barcha o'rinnarda to'g'ri bog'langan. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining variantlari ham vaziyat taqozosiga ko'ra adabiy nutq talabiga mos qo'llangan. Shaxsiy kamsitish, ruhiy bosim o'tkazish, o'z kasbini suiste'mol qilish singari ayblovlar ko'rsatilgan.

Matnning leksik xususiyatlari: Matn ijrochisi haqida ma'lumot olish mumkin bo'lgan asosiy so'zlar: *ruhiy bosim, nomunosib, savodsiz o'qituvchi, ota-onalar*. Matnda noadabiy unsurlar uchramaydi. So'zlar takrori qisqa holatlarda kuzatiladi.

Matnning morfologik xususiyatlari: Matndagi barcha kelishik qo'shimchalari to'g'ri qo'llangan. Ko'pchilik xatolikka yo'l qo'yuvchi qaratqich va tushum kelishigi ham o'z ornida farqlangan. Nisbat qo'shimchalari qo'llanishida ham xatoliklar kuzatilmaydi.

Matnning sintaktik xususiyati: Matn boshida murakkab sintaktik tuzilishlar qo'llangan. Matn davomiga kelib esa qisqa sintaktik tuzilishlardan foydalanilgan. Matn faqat shu qismdan iborat emas, uning davomi yoki o'rtasida bandi bo'lishi mumkin degan taxmin qilish mumkin. So'z birikmalari to'g'ri tuzilgan.

Olingen ma'lumotlar asosida dastlabgi ekspert xulosasi:

- Matnning leksik xususiyatlariga muvofiq matn ijrochisi o'zbek millatiga mansub. Agarda matn o'zga millat vakili tomonidan yozilganida, so'zlar valentligiga muvofiq tanlanishi mumkin emas edi. Ya'ni ushbu matnda so'zlar o'z o'rniда va kerakli joyda qo'llangan. Demak, matn buyurtma asosida bir necha shaxs tomonidan yozilgan. Bir necha deyishimizning boisi bu matndagi matn ijrochisi hamda muallifi boshqa-boshqa shaxs bo'lib, matn ijrochisi ushbu matnni o'zga shaxs buyurtmasi asosida uning "tilidan" yozgan.

- Matn ijrochisi oliy ma'lumotli shaxs va aynan o'zbek tili o'qituvchisi bo'lishi mumkin. Asos: matnning leksik, sintaktik, morfologik xususiyatlariga muvofiq matn ijrochisi fikrni adabiy til normalariga qat'iy rioya qilgan holda yozgan. Imloviy xatolar esa atayin qilingan. Chunki murakkab so'zlar bexato yozilib, sodda so'zlar imlosida ayrim kamchiliklar kuzatiladi (birgina "yaxshi" so'zi "yahshi" tarzida yozilgan).

Demak, matn matab faoliyatiga bevosita taalluqli shaxs tomonidan yozilgan.

Harf shakllari xususiyatlari bo'yicha xulosa: Matn lotin alifbosida deyarli hech bir xatosiz yozilgan. Matn muallifi keksa erkak kishi, ammo xat ijrochisi 35 yoshlar atrofidagi ayol bo'lishi mumkin. Chunki asosan krill alifbosida o'qigan yoshi katta insonlarga lotin alifbosida yozish qiyinchilik tug'diradi. Bu matn esa osonlikcha shiddat bilan yozilgan. Shiddat bilan yozilgan deyishimizning sababi harf shakllari orasida uzilishlar uchramasligi va so'zlar oralig'i qisqaligidira. Bu holat xat ijrochisining jahldor va izzattalab ekanligidan darak beradi. Yoki nutq yozilayotgan tiqilinch vaziyatning izi bo'lishi ham mumkin. Xatning ayol kishi tomonidan yozilgan degan farazimizni harf shakllarining yozma qonuniyatlarga to'la bo'ysinib bir tekisda yozilgani bilan izohlaymiz. Chunki ko'pchilik erkak kishilar yozuvida harf shakllarini bosma tarzda qo'llashga intilish kuzatiladi.

Yakuniy xulosa: Xat ijrochisi ayol jinsidagi oliy ma'lumotli, millati o'zbek, 35 yoshdan oshmagan matabning o'zbek tili o'qituvchisi. O'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro shaxsiy ziddiyat xat ijrochisining ushbu buyurtma xatni yozishiga sabab bo'lga.

Qo'lda yozilgan hujjat va bosma nashr unsurlarini tahlil qilish bir-biridan farq qiladi. Qo'lyozma matnlarda shaxs haqida ko'proq ma'lumotlarni aniqlash mumkin.

Yozma nutq hujjat muallifining fikrlari ifoda etish uchun ishlataladigan lingvistik vositalar majmuyini ifodalaydi. Fikrlar esa aynan muallif tomonidan emas, boshqa bir inson tomonidan yozilgan bo'lishi matn avtoriatsiyasi bo'yicha muammo keltirib chiqaradi. Yozma matnlar ekspertizasida, ayniqsa, qo'lyozma matnlarda har bir unsur alohida ro'l o'ynaydi. Bu jarayonda nafaqat lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish lozim, balki yozuv quroli va shart-sharoiti kabi maslalarga oydinlik kiritish uchun fizika yoki kimyoga oid bilimlarni ham jamlash maqsadga muvofiq bo'ladi mumkin. Umuman olganda, xat yozilishi jarayoniga insonning bilim darajasi, atrof-muhit,

ijtimoiy munosabatlar, psixologik va kognitiv qobiliyatlar, jismoniy va ruhiy holat (charchoq, uyqusizlik, asabiylik, hayajon, shoshqaloqlik) o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Albatta, bu qatorni yanada kengaytirish mumkin. Boisi har bir shaxs individual xususiyatga ega va uning yozuvi haqida ham xuddi shunday qarorga kelish mumkin.

Yozma matnlarda ikki asosiy shaxs ishtirok etadi:

- 1) hujjat muallifi;
- 2) xat ijrochisi.

Bu ikki subyektni aniqlash orqali matn maqsadi haqida bilish mumkin. Hujjat muallifi va ijrochisini aniqlash nutq qobiliyatları imkoniyatining o‘ziga xosligi va barqarorligiga asoslanadi. Bunda leksik, grammatik, sintaktik-stilistik jihatdan yozma nutq imkoniyati hisobga olinadi. Tahlilda lingvistik unsurlarni aniqlash jarayonida punktuatsion belgilarning qo‘llanishiga ham e’tibor qaratish lozim.

#### Xulosa

- Matn avtorizatsiyasini aniqlash murakkab jarayon. Yozma matnda ikki asosiy shaxs: hujjat mualli va xat ijrochisi;
- Har bir shaxs individual xususiyatga ega va uning shaxsiyatidagi o‘ziga xosliklar u tomonidan yozilgan matnda ham aks etadi;
- Matn ijrochisinig shaxsiy sifatlari matndagi leksik, grammatik va stilistik xususiyatlar orqali namoyon bo’ladi;
- Matndagi eng kichik detallar: harf shakllari, so’zlar oralig’idagi interval, tinish belgilaringning qay tarzda ishlatalishi ham matn ijrochisi haqida hal qiluvchi hukmni berishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musulmonova K. O’zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o’tkazish jarayoni, bosqichlari, metotodlari. PHD diss.
2. To’rayeva D. O’zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi. PHD diss.
3. To’rayeva D. Nutqda shaxs ruhiy holatining namoyon bo’lishi. Mag...diss